



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buguk
davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2024-yil 25-aprel, № 80 (8703)

Payshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



Toshkent xalqaro sanoat ko'rgazmasi:

YIRIK INVESTORLAR UCHUN MUHIM MULOQOT MAYDONI

Avval xabar berilganidek, poytaxtimizdagi "O'zekspomarkaz" ko'rgazmalar majmuasida to'rtinchi bor "Innoprom. Markaziy Osiyo" xalqaro sanoat ko'rgazmasi o'tkazildi. Bu Markaziy Osiyoda savdo-sanoat kooperatsiyasini rivojlantirishda muhim voqelik bo'ldi, desak, mubolag'a emas. Ko'rgazmada nafaqat mintaqa mamlakatlari, balki Rossiya Federatsiyasi, Belarus, Xitoy va Turkiya kabi jami 27 davlatdan delegatsiyalar hamda kompaniyalar ishtirok etdi.



Tadbir hududlar va iqtisodiyot tarmoqlari rahbarlari, yirik ishlab chiqarish korxonalari va biznes tuzilmalari vakillari o'zaro tajriba almashishda muhim maydon bo'ldi. Energetika va avtomobilsozlik, tog'-kon, kimyo va neft-gaz sanoati, to'qimachilik va qurilish sanoati, sun'iy intellekt joriy etish va boshqa ko'plab sohalar kelishuv va shartnomalar imzolandi.

Anjumanda asosiy e'tibor O'zbekiston, Rossiya, Belarus va boshqa davlatlar hududlari o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishga qaratildi. Ekspozitsiyaning asosiy qismini ishtirokchi mamlakatlar viloyatlari va ma'muriy hududlari jamoaviy stendlari egalladi.



Munosabat

O'zbekiston va Tojikiston:

HAMKORLIGIMIZ SIFAT JIHATDAN YANGI BOSQICHGA KO'TARILMOQDA

So'nggi yillarda O'zbekiston — Tojikiston munosabatlari jadal rivojlanib strategik sheriklik darajasiga ko'tarildi. Bu ikki tomonlama aloqalar tarixida yangi sahifa ochilgani, sheriklik aloqalari esa sifat jihatdan yanada yuqori bosqichga ko'tarilgani va amaliy mazmun bilan boyib borayotganidan dalolat beradi.

O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi aloqalar uzoq tarixga borib tutashadi. Markaziy Osiyo hududida davlatchilik munosabatlari shakllana boshlabdiki, bu ikki xalq o'rtasida madaniy, iqtisodiy va diplomatik aloqalar bo'lib kelgan. Xalqlarimizni umumiy tarix, madaniyat va ma'naviy qadriyatlar, o'zaro hurmat hamda yaxshi qo'shnichilikning ko'p asrlik an'analari birlashtirib turadi. Bu yaqinlik O'zbekiston bilan Tojikiston o'rtasidagi munosabatlar uchun mustahkam zamin, asosiy

tamoyil bo'lib xizmat qilib kelayotir. Umumiy urf-odat, marosim, e'tiqod, turmush tarzi va hatto milliy liboslar uslubi va yuz yillar davomida shakllangan xalq san'atining o'ziga xos xususiyatlari xalqlarimizni tabiiy ravishda yaqinlashtirganligini ko'rishimiz mumkin. Va bugun rasmiy Toshkent hamda Dushanbening siyosiy irodasi bu tarixiy tajriba va boy umumiylikdan hamda Dushanbening siyosiy irodasi bu tarixiy tajriba va boy umumiylikdan hamda davlatlarimiz munosabatlarini kuchaytirish maqsadida foydalanishga yo'naltirilgan.



DO'STLIK VA QARDOSHLIGIMIZ ZAVOL TOPMAYDI

O'zbekiston bilan Tojikiston o'rtasidagi munosabatlar mustahkam huquqiy asosga ega bo'lib, ikki davlat manfaatlariga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, keyingi yillarda ikki davlat rahbarlarining uzoqni ko'zlab olib borayotgan tashqi siyosati samarasida ko'p qirrali hamkorlik va o'zaro do'stona aloqalar yanada yuqori pog'onaga ko'tarilib, strategik sheriklik darajasiga yetdi. O'zaro do'stona aloqalar aniq amaliy qadamlar bilan boyitilgan holda rivojlanmoqda.

Agar raqamlarga tayanilsa, 2017-yildan keyin ikki mamlakat o'rtasidagi tashqi savdo aylanmasi 237,9 mln. dollardan qariyb uch barabarga ortib, 756,8 mln. dollarga yetdi. 2024-yilning yanvar-fevral oylarida o'zaro tovar ayirboshlash hajmi 40 foizga o'sib, qariyb 120 mln. dollarni tashkil qildi.

Davlatlar o'rtasidagi ikki

tomonlama munosabatlarda munozarali masalalar qolmadi. Yaxshi qo'shnichilik rishtalari mustahkamlandi, mavjud muammolarni birgalikda hal qilish yo'lida jadal harakat boshlandi. Bu o'zgarishlarni O'zbekiston va Tojikistondagi millionlab odamlar bugun o'z kundalik hayotida his etmoqda.



Uchrashuv

SENAT RAISI AQSH DELEGATSIYASI BILAN MUZOKARA O'TKAZDI

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva kecha AQShning Yuta shtati Senati raisi Styuart Adams boshchiligidagi delegatsiya bilan muzokara o'tkazdi.

Unda O'zbekiston hamda AQSh hamkorligining muhim yo'nalishlari, xususan, savdo-iqtisodiy, mehnat munosabatlari, gender tenglik sohalarida aloqalarni rivojlantirish va parlamentlararo muloqotni mustahkamlash masalalari ko'rib chiqildi.

Muloqot chog'ida investitsiyaviy, tovar va xizmatlar bozori, tog'-kon sanoati, energetika, axborot texnologiyalari sohasida qo'shma loyihalarni amalga oshirish bo'yicha fikr almashildi. Bunda Yuta shtati biznes doiralari bilan o'zaro manfaatli loyihalarni amalga oshirish, hududlarimiz o'rtasida sheriklikni yo'lga qo'yish va aloqalarni mustahkamlash muhimligi alohida ta'kidlandi.

Shuningdek, gender tenglikni ta'minlash, mehnat munosabatlari va migratsiyasi, sog'liqni saqlash, ta'lim sohasida hamkorlikni yo'lga qo'yish

borasidagi ijtimoiy loyihalarni faollashtirish masalalari ham e'tibor markazida bo'ldi. O'z navbatida, Styuart Adams O'zbekistonda Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida olib borilayotgan islohotlarni kuzatib borayotgani va ularni yuksak baholashini ta'kidlab o'tdi. Ayni chog'da u qator yo'nalishlar, xususan, biznes va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy sohalarida o'zaro hamkorlikda istiqbolli loyihalarni yo'lga qo'yishda Yuta shtati Senati bor imkoniyatlarni jalb qilishga tayyorligini, yetakchi kompaniyalar rahbarlari bunga qiziqish bildirayotganini qayd etdi.

Uchrashuvda parlamentlararo muloqotni yanada rivojlantirish hamda mahalliy vakillik organlarining hamkorligini yo'lga qo'yish, shuningdek, o'zaro tajriba almashishga kelishib olindi.

"Xalq so'zi".

"Fizika— 2024":

XALQARO ALOQALAR YANADA KENGAYADI

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, O'zRFA Yadro fizikasi instituti va Samarqand davlat universiteti (SamDU) Muhandislik fizikasi instituti hamkorligida "Fizika — 2024" III xalqaro forumi bo'lib o'tmoqda.

Forum

Forumning asosiy maqsadi materiya va koinotning tuzilishi, kondensirlangan holat fizikasi, amaliy fizika kabi yo'nalishlarda dunyo miqyosida erishilgan yutuqlar bilan yaqindan tanishishdan iboratdir.



"O'zbekiston — 2030" strategiyasi:

YOSHLARIMIZ KELAJAKKA ILM BILAN KIRIB BORADI

Bugun yurtimizda beqiyos yangilanishlar yuz bermoqda. Ayniqsa, axborot texnologiyalari sohasidagi yuksalishlar unib-o'sib kelayotgan navqiron farzandlar ko'z o'ngida ro'y berayotgani ularni hayot bilan hamqadam bo'lishga, intilish, izlanish va tashabbus ko'rsatishga undamoqda. Bunday tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashni esa davrning o'zi taqozo etib turibdi. Zero, sohani mukammal egallagan va uni rivojlantirishga astoydil bel bog'lagan kadrlarga ehtiyoj kun sayin oshib bermoqda.

Prezidentimiz raisligida shu yil 5-fevral kuni bo'lib o'tgan ijtimoiy sohadagi ustuvor vazifalarga bag'ishlangan yig'ilishda ham bu haqda aytib o'tildi. Unda oliy ta'lim tizimida uchrayotgan muammolarni

bartaraf qilish, innovatsion va kreativ fikrlaydigan zamonaviy kadrlarni tayyorlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida, yuksak ma'naviyat egalari etib tarbiyalash borasida ustuvor vazifalar belgilab berildi.

Albatta, ularni amalga oshirishda "O'zbekiston — 2030" strategiyasida belgilangan oliy ta'limga hamda IT sohasini rivojlantirishga doir ustuvor vazifalarning ahamiyati juda katta.



9-may — Xotira va Qadrlash kuni



Xalqimizning Ikkinchi jahon urushi davridagi jasorati va fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga qo'shgan hissassi beqiyos. Dunyo ahli buni yaxshi biladi hamda e'tirof etadi. Bu yo'lda qanchadan-qancha ajdodlarimiz qurbon bo'lgan, bir qismi esa qahramon sifatida uyiga qaytgan. Yana qancha bobo va momolarimiz frontdagidan kam bo'lmagan sharoitda mehnat qilgan.

O'ZBEK XALQINING IKKINCHI JAHON URUSHI DAVRIDAGI JASORATI BIQIYOS

Shu ma'noda, bugun ushbu vatandoshlarimizning so'nmas xotirasini yod etib, ularning ruhi poklariga hurmat baho keltirish biz uchun ham qarz, ham farzdir. Zero, bugungi yorug', musaffo osmonimiz sofligini, tinch va osuda hayotimizni ta'minlash uchun buki masalalar iroda va jasorat namunasini ko'rsatgan, Vatan uchun jon fido qilgan jasur bobolarimiz matonatini hech qachon unutib bo'lmaydi.

Urush davri musibatlarni boshidan kechirgan yurtdoshlarimizning xotiralaridan ma'lum bo'lishicha, odamlar o'sha vaqtlarda sovet rejimini himoya qilish zaruriyati haqida kam o'ylagan. Aksincha, xalqimizning aksariyat qismi mustabid tuzumni qoralardi. Nega deganda, xalqimiz Turkiston muxtoriyati qonga botirilishi, istiqlochlik harakatining zo'rvonlik bilan bostirilishi va diniy

e'tiqodi uchun ta'qib qilinganini hali esdan chiqarmagan edi. Qolaversa, jamoalashtirishning "stalincha" zo'rvonlik bilan amalga oshirilishi natijasida yuz bergan jinoyatlar, mustabid tuzumning ommaviy qatag'onlaridan qolgan yaralar hali bitmagandi. Shunga qaramasdan xalqimizning fashizmga bo'lgan kuchli nafrati mustabid tuzum yetkazgan g'am-alamni orqa o'ringa surib qo'ydi va u dushmanga qarshi otlandi.

Aytish joizki, yangi O'zbekistonda Prezident Shavkat Mirziyoyevning bevosita rahbarligida Ikkinchi jahon urushi yillarida jasorat va matonat, mehr va muruvvat kabi insoniylikning yuksak namunasini ko'rsatgan xalqimizning buyuk g'alabaga qo'shgan munosib hissassi bilan bog'liq muqaddas xotirani saqlab qolish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.



MEHR-MUHABBAT VA SADOQAT UNUTILMAYDI

Xotira — boqiy, qadr — muqaddas. Shu ma'noda, Ikkinchi jahon urushida halok bo'lgan minglab yurtdoshlarimiz xotirasini yod etish, omon qaytgan bobolarimizga mehr ko'rsatish tom ma'noda an'anaga aylandi. Boisi bugungi tinch va osoyishta, erkin va farovon hayot uchun aziz jonini fido qilgan ajdodlarimizni eslab, ularning ezgu ishlarini munosib davom ettirish tinchlikni buyuk ne'mat, deb biladigan oliyjanob xalqimizga xos fazilatdir.

Ikkinchi jahon urushi insoniyat tarixidagi eng dahshatli qirg'in bo'ldi, u xalqimiz boshiga ham og'ir azob-uqubat va talafotlar keltirdi. Insoniyat taqdiri va kelajagi hal bo'layotgan o'sha suronli yillarda O'zbekiston frontning mustahkam ta'minot bazasi bo'lib xizmat qildi. Xalqimiz tunu kun mehnat qilib, oziq-ovqat, kiyim-kechak, qurol-aslaha, dori-darmon zaxiralarini jang maydonlariga uzluksiz yetkazib berdi. Urush ketayotgan joylardan O'zbekistonga ko'chirib keltirilgan 1,5 milliondan ko'p keksalar, ayollar va bolalarni qabul qilib, borini baham ko'rdi. Ularga boshpana berdi, mehr-muruvvat ko'rsatdi.

Yurtimizda buyuk g'alabani qo'lga kiritishda mardlik va jasorat ko'rsatgan, front ortida fidokorona mehnat qilgan yurtdoshlarimiz xotirasini yod etish, ularning matonatini yosh avlodga yetkazish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, har yili mamlakatimizda 9-may — Xotira va Qadrlash kuni munosib nishonlanadi. Bu ulug' ayyom tufayli ajdodlar ruhini xotirlash, yosh avlodning barkamol voyaga yetishida o'zining ulkan hayotiy tajribasi orqali ibrat bo'layotgan keksalarimiz hurmatini joyiga qo'yishdek ezgu fazilatlar har bir yurtdoshimizning qalb amriga aylangan. Bu yil ham ushbu sana munosabati bilan respublikamizning barcha go'shasida qizg'in tayyorgarlik ko'rilmoqda, olovli janggohlardan omon qaytgan bobolarimizga ehtirom ko'rsatilib, holidan xabar olinmoqda.

Prezidentimizning shu yil 16-apreldagi "9-may — Xotira va Qadrlash kuniga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan bu yilgi bayram tadbirlari "Jasorat — millat g'ururi va iftixori" shiori ostida o'tkazilishi zahirida ham katta ma'no bor.



Senat qo'mitasida

INTELLEKTUAL MULK OBYEKTLARINING HUQUQIY HIMOYASI KUCHAYTIRILADI

Oliy Majlis Senatining Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi majlisida "Intellectual mulk obyektlarini huquqiy himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonun dastlabki tarzda muhokama qilindi.



Tadbirida senatorlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlarining Ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo'yicha doimiy komissiyalari raislari, ekspertlar, vazirlik va idoralar hamda ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

Senatorlar yurtimizda iqtisodiyot tarmoqlariga intellektual faoliyat natijalarini joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish, tadbirkorlik va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, mahalliy ishlab chiqaruvchilar mahsulotlarining raqobatdoshligini oshirish hamda ularning qo'shimcha qiymat bilan realizatsiya qilinishini ta'minlash maqsadida intellektual mulkni ishonchli tarzda huquqiy muhofaza qilish borasida izchil islohotlar olib borilayotganiga urg'u berishdi.

Ayni chog'da jismoniy va yuridik shaxslarning intellektual faoliyati natijasida yaratilgan mulk daxsizligini ta'minlash, jamiyatda huquqbuzarliklarga nisbatan

murosasizlik munosabatini shakllantirish, fuqarolarning o'z huquqlarini himoya qilishdan manfaatdorligini ta'minlovchi huquqiy mexanizmlarni qonunchilikda mustahkamlash zaruriyati yuzaga kelganligi ham qayd etildi.

Qolaversa, intellektual mulkning ta'sirchan huquqiy mexanizmlar bilan himoya qilinishini ta'minlash ushbu sohada huquqbuzarliklarning oldini olish uchun qonunchilikni takomillashtirishni taqozo qilmoqda.

Qonun bilan fuqarolik-huquqiy munosabatlarni takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga intellektual mulk obyektlaridan qonunga xilof ravishda foydalanganlik uchun huquq egasining talabiga ko'ra huquqbuzar tomonidan tovon to'lash tartib-taomili joriy etilishini nazarda tutuvchi qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Aytilganidek, qonun jismoniy va yuridik shaxslarning intellektual mulkka bo'lgan huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirishga, shuningdek, huquqbuzarliklar sonining kamayishiga, intellektual mulk muhofazasini kuchaytirishga va raqamli muhitda ijodiy faoliyatga bo'lgan huquqlar himoyasining ta'sirchan mexanizmlari tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

Muhokama yakunida qonun yuzasidan vazirlik va idoralar vakillari, qo'mita ekspertlarining fikrlari eshitilib, Senat qo'mitasining tegishli qarori qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

Davra suhbat

Tibbiy reabilitatsiya:

MUAMMO VA YECHIMLAR

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Fuqarolarning sog'lig'ini saqlash masalalari qo'mitasi tomonidan "Barcha yoshdagi kishilarning salomatligini mustahkamlashda tibbiy reabilitatsiyaning ahamiyati, muammo va yechimlar" mavzuida davra suhbat o'tkazildi.



Bugungi kunda tibbiyot muassasalarini aholiga yanada yaqinlashtirish, fuqarolarning tibbiy xizmatdan foydalanish qulayligini oshirish maqsadida birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari tarmog'i kengaytirilyapti. Bemorlarni, nogironligi bo'lgan insonlarni, keksalarni tibbiy reabilitatsiya qilishga oid normal qator qonunlarda mustahkamlab qo'yilgani e'tiborga molik.

Joriy yilda bemorlar reabilitatsiyasini tashkil etish hamda ularni protez-ortopediya moslamalari va reabilitatsiya qilishning texnik vositalari bilan ta'minlash mexanizmlarini soddalashtirishga oid Prezidentning ikkita qarori qabul qilindi. Ularga asosan infarkt, insult, shikastlanish va jarrohlik amaliyotlaridan so'ng hamda suyak-mushak tizimi kasalliklari mavjud bo'lgan bemorlarni tibbiy reabilitatsiya qilish,

"Jismoniy faollik va reabilitatsiya" magistrlik yo'nalishi joriy etildi. Bu kabi mutaxassislarni Davlat budjetidan ajratilgan mablag'lar asosida tayyorlash ko'zda tutilgan.

Shu bilan birga, qator protez moslamalari va ularning butlovchi, ehtiyoj qismlari respublika hududiga olib kiritilishida qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilindi. Muhtoj shaxslarni protez-ortopediya moslamalari va reabilitatsiya qilishning texnik vositalari bilan ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga doir chora-tadbirlar rejasini tasdiqlandi. Davlat tomonidan ta'minlanadigan protez moslamalari va reabilitatsiya vositalarining turlari 18 tadan 30 taga kengaytirildi.

Qayd etilganidek, Sog'liqni saqlash vazirligi tizimida Respublika ixtisoslashtirilgan terapiya va tibbiy reabilitatsiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi,

uning hududiy filiallari faoliyat yuritmoqda. Ularda respublika darajasida 21 turdagi, viloyat miqyosida 18 turdagi hamda tuman darajasida 12 turdagi yangi davolash va diagnostika usullari joriy qilingan, amaliyotda qo'llanilgan ilg'or muolaja usullari soni o'tgan yildagi 36 tadan 57 taga yetkazilgan.

Shuningdek, Ijtimoiy himoya milliy agentligi tizimida 12 ta, jami 975 o'rinni nogironligi bo'lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va protezlash markazi faoliyat yuritmoqda.

Ishtirokchilar davolash-profilaktika muassasalarida nogironligi bo'lgan shaxslarni maqsadli reabilitatsiya qilishga ixtisoslashtirilgan bo'limlar yo'qligini qayd etib, bunday shaxslarni reabilitatsiya tadbirlari bilan qamrab olish ko'lamini

"O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturida 2024-yilda nogironligi bo'lgan shaxslarni zamonaviy protez-ortopediya moslamalari va reabilitatsiya qilish texnik vositalari bilan ta'minlashning yangi tizimini bosqichma-bosqich joriy qilish belgilangan.



oshirish va samaradorligini baholash, qaysi holatda ambulator, qaysi holatda statsionar sharoitda reabilitatsiya tadbirlarini o'tkazishni belgilashning aniq mezonlarini ishlab chiqish zarurligini ta'kidlashdi.

Deputatlar tibbiy reabilitatsiya ishlari samaradorligini oshirish, qonunchilik hujjatlarida bu borada belgilangan vazifalar ijrosini o'z vaqtida ta'minlash, jumladan, ishlab chiqilishi nazarda tutilgan hujjatlar loyihalarini tayyorlashda tadbir davomida ko'tarilgan masalalarga e'tibor qaratish va ularning belgilangan vaqtda qabul qilinishini ta'minlash choralarini ko'rish, tuman (shahar) tibbiyot birlashmalarida statsionar tibbiy reabilitatsiya bo'limlarini tashkil etish ishtarini jadallashtirishni tavsiya qildilar.

Bildirilgan fikr va mulohazalar asosida qo'mitaning tegishli qarori qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

O'ZBEK XALQINING IKKINCHI JAHON



1 Avvalo, davlat rahbarining tashabbusi bilan Ikkinchi jahon urushi yillaridagi tariximizni o'rganishda tom ma'noda yangi davr boshlandi. Masalan, 2020-yilgacha urush boshlangan paytda yurtimiz aholisi 6 million 551 ming kishini tashkil etgan va ulardan 1 million 500 mingga yaqini urushda qatnashgan, deb hisoblanar edi. Ammo jahon arxivlari o'rganilib, yangi topilgan ma'lumotlar tahlil qilinganda esa O'zbekistondan 1 million 951 mingga yaqin kishilar urushga safarbar etilgani aniqlandi. Demak, har uch nafar o'zbekistonlikdan bittasi qo'lga qurol olib fashizmga qarshi jang qilgan. Demak, 451 ming nafar yurtdoshimizning nomlari va taqdiri shuncha yillar davomida e'tibordan chetda qolib kelgan.

Bundan tashqari, ilgari 396 ming nafar O'zbekiston fuqarosi urushda halok bo'lgan, deb aytilardi. Aslida bu raqam 538 mingdan ziyod bo'lgan, 158 mingdan ko'prog'i bedarak yo'qolgan.

Urushdan qoraxat kelganlarga aza ochilgan bo'lsa, bedarak ketgan

askarlar yaqinlarining musibati undan ham og'irroq kechgan. Ular daragi chiqmagan askar o'g'li, turmush o'rtog'i va otasini bir umr kutgan, yillab izlashgan.

Bedarak ketganlar orasida 101 askarning taqdiri, ayniqsa, boshqacha kechgan. Ular 1941-yilda urushning dastlabki haftalarida Smolensk ostonasida asirga olingan va natsistlar tomonidan okkupatsiya qilingan Niderlandiyaga "propaganda" maqsadlarida jo'natilgan.

Dastlabki uch kunda o'zbeklarni lagerda

ovqatsiz, ochiq osmon ostida, simtkan bilan o'ralgan hududda saqlashgan. Maqsad — bir burda non uchun bir-birining go'shtini yegan odamlar holati tasvirga olinib, undan targ'ibot vositasida foydalanish edi. Lekin 101 vatandoshimiz

natsistlarning bu rejasini chippakka chiqaradi. Ular nemislar kutganidek non uchun bir-birini o'ldirish darajasiga bormadi, uch kun tuz totmagan bo'lishsa-da, bir-birini qo'llab-quvvatladi.

Xullas, matonatlari bu askarlarning 24 nafari 1941-yilning qahraton qishidan chiqolmay ochlik va kasallikdan halok bo'ladi, qolgan 77 nafari 1942-yil 9-aprelda otib tashlanadi.

Olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida orden va medallar bilan mukofotlangan O'zbekiston vakillari soni bo'yicha ham oydinlik kiritildi. Ilgari bu ko'rsatkich 120 ming nafar, deb qayd etilar edi. Yangi ma'lumotlarga asosan Ikkinchi jahon urushida 200 mingdan ziyod askar va ofitserlarimiz jangovar davlat mukofotlari bilan taqdirlangani aniqlandi.

Shu o'rinda, Sovet ittifoqi qahramoni bo'lgan bir o'zbek o'g'lonining Ikkinchi jahon urushida ko'rsatgan matonati to'g'risida o'xtalmoqchimiz. Gap shundaki, o'shanda

Belarusning Mogilyov tumaniga qarashli Dashkovka qishlog'i hududidan Dnepr daryosini kechib o'tish bu yerda joylashgan 385-o'qchi diviziya uchun hayot-mamot masalasini hal qiladigan eng muhim operatsiya sifatida alohida ahamiyat kasb etar edi. O'zbek farzandi Shodi Shoimov maxsus guruh bilan birinchilardan bo'lib tashabbus ko'rsatadi.

Daryoning narigi qirg'og'idagi dushmanga suv sathi aniq ko'rinib turar, kechuva tushganlarni qirib tashlashi aniq edi. Shunday bo'lsa-da, Shodi Shoimov va uning guruhi dushman tomonidan yog'dirilgan o'q yomg'irlari ichida narigi qirg'oqqa suzib o'tadi.

O'zbek o'g'loni fashist bilan yuzmay-yuz bo'ldi, yaqin masofada turib jang qildi va o'zini bosqinchilar xandaqiga tashladi. Dushman bilan kechgan qo'l jangida pahlavon o'zbek farzandi 13 fashistni o'ldiradi. 1944-yil 27-iyun kuni Dnepning o'ng qirg'og'ida o'nashgan gazandalar izdihomi tor-mor etiladi. Diviziya askarlariga Dnepni kechib o'tish uchun yengillik tug'iladi. Biroq Sh. Shoimov dushman bilan kechgan ayovsiz qo'l jangida og'ir yaralanadi va ertasi kuni 28-iyunda jarohati tufayli halok bo'ladi. U bor yo'g'i 18 yoshda edi...

E'tibor bering, u 18 yoshida Sovet ittifoqi qahramoni bo'ldi. O'zidan bir donagina surat ham qoldirmagan, lekin jasoratni abadiyatga muhrlagan o'zbek o'g'loni Shodi Shoimovning byustini tiklashda singlisi Tilovlatning rasmidan foydalaniladi. O'sha surat hozir Belarusning Dashkovkadagi muzeyida saqlanmoqda.

Shuningdek, 24 yoshida Sovet ittifoqi qahramoni bo'lgan Qo'chqor Turdiyev, general Sobir Rahimov, Zebo G'aniyeva, Mamadali Topivoldiyev, Ahmadjon Shukurov va boshqa ko'plab vatandoshlarimizning jasoratlari ham alohida e'tirofga loyiqdir.

O'zbekiston va Tojikiston:

HAMKORLIGIMIZ SIFAT JIHATDAN YANGI BOSQICHGA KO'TARILMOQDA

1 Toshkent va Dushanbe shaharlarida iqtisodiyotimiz yutuqlariga doir turli ko'rgazmalar hamda xalqlarimiz birdamligining haqiqiy ifodasiga aylangan madaniyat kunlari o'tkazilishi ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirish yo'lidagi ezgu qadamlar sirasiga kiradi.

Tojikiston O'zbekistonning mintaqada olib borayotgan xavfsizlik va barqarorlik hamda yaxshi qo'shnichilik siyosatini, ya'ni pozitsiyasini qo'llab-quvvatlab kelayotgani bizni mamnun etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning yaqinda Tojikistonga amalga oshirgan davlat tashrifi barcha yo'nalishdagi o'zaro aloqalarimizni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilganligi bilan tarixiy ahamiyat kasb etdi, desak, ayni haqiqat.

Aytish joizki, oliy darajadagi muzokaralarda yetakchilar O'zbekiston hamda Tojikiston strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlari yanada rivojlantirish masalalarini muhokama qildi hamda xalqaro va mintaqaviy darajadagi hamkorlik yuzasidan fikr almashdi.

Uchrashuv asnosida mamlakat yetakchilari tomonidan siyosiy muloqotni rivojlantirish, savdo-iqtisodiy hamkorlikni, hududlararo aloqalar va madaniy-gumanitar almashinuvni kengaytirish masalasiga ham alohida e'tibor qaratildi.

Yetakchilar Markaziy Osiyoning manfaatlarini ilgari surish va uning barqaror taraqqiyotini ta'minlash borasidagi sa'y-harakat hamda imkoniyatni birlashtirish maqsadida mintaqaviy tuzilmalar va xalqaro tashkilotlar doirasida konstruktiv hamkorlikni bundan keyin ham izchil davom ettirishga intilishini tasdiqladilar.

Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi shartnomaning imzolaniishi esa mazkur tashrifning tarixiy ahamiyatini yanada oshirib yubordi. Zero, bu hujjat O'zbekiston va Tojikiston munosabatlari sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarishda dasturlamal vazifasini o'tab berishi, shubhasiz.

Shu o'rinda, tashrif arafasida O'zbekiston — Tojikiston biznes forumi muvaffaqiyatli tashkil etilib, uning yakunida yangi kooperatsiya loyiha va savdo shartnomalarining katta portfeli shakllantirilganini alohida aytish zarur. Mashinasozlik, elektrotexnika, energetika,



konchilik, qishloq xo'jaligi, to'qimachilik va farmatsevtika tarmoqlaridagi o'zaro manfaatli loyihalar shular jumlasidandir.

Tashrif doirasida suvdan foydalanish bo'yicha konstruktiv va o'zaro manfaatli muloqotni davom ettirish masalalari muhokama qilindi.

Ma'lumki, Tojikiston katta gidroenergetika salohiyatiga ega davlat hisoblanadi. Ana shu salohiyatdan oqilona foydalanish Markaziy Osiyo, shu jumladan, O'zbekiston uchun ham katta ahamiyatga ega. Yuqoridagi omillardan kelib chiqib, tashrif doirasida Tojikiston Respublikasi va O'zbekiston Respublikasi o'rtasida Zarafshon daryosi havzasida gidroelektr stansiyalarini qurish to'g'risida shartnoma imzolandi.

Shu kelishuv asosida Tojikiston Respublikasi tomonidan Zarafshon daryosi havzasida gidroelektr stansiyalarini qurish ishlari ikki bosqichda amalga oshiriladi.

Birinci bosqichda quvvati 100 MVt bo'lgan yiliga 580 million kVt/soat elektr energiyasi ishlab chiqaradigan "Yovon" GESsini qurish ishlari bajariladi. Mazkur loyihaga joriy yilning 2-3-maydan kirishish ko'zda tutilmoqda.

Ikkinchi bosqichda esa yiliga o'rta 600 million kVt/soat elektr energiya ishlab chiqarish quvvatiga ega "Fandaryo" GESsini qurish reja qilib olingan.

E'tiborlisi, mazkur ikkita loyiha mamlakatlarimizning energetika yo'nalishidagi eng katta dastlabki loyihalari sifatida baholanmoqda.

Ko'rinib turibdiki, O'zbekiston va Tojikiston munosabatlari tobora rivojlanib bormoqda. Prezidentimizning bu galgi tashrifi jarayonlarni yanada tezlashtiradi. Bu esa biz, xalq vakillaridan ham katta mas'uliyat talab etadi.

Abdug'ani SANGINOV,
Oliy Majlis Senati a'zosi.

DO'STLIK VA QARDOSHLIGIMIZ ZAVOL TOPMAYDI

1 Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 18-19-aprel kunlari bo'lib o'tgan Tojikiston Respublikasiga davlat tashrifi nafaqat ikki mamlakat taraqqiyoti va xalqlarimiz manfaatiga, balki butun mintaqamiz tinchligi, osoyishtaligi va farovonligiga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Ayniqsa, tashrif doirasida Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi tarixiy shartnomaning imzolaniishi ikki davlat munosabatlari sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilganini bildiradi. Ushbu shartnoma strategik sheriklikdan keyin mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlarning eng yuqori darajasi bo'lib, bu ko'p qirrali strategik sheriklik va ittifoqchilikni chuqurlashtirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar ortga qaytmas tus olganidan dalolatdir.

Qayd etish joizki, ikki tomonlama aloqalarni rivojlantirishda muhim omil bo'lgan parlamentlararo hamkorlikni yanada kengaytirish va mustahkamlash, shu yo'nalishdagi muloqotlarni ko'paytirish har tomonlama foydali. Keyingi yillarda parlamentlararo aloqalar ham izchil rivojlanmoqda.

Prezidentimizning Tojikistonga tashrifi doirasida ushbu mamlakat Majlisi namoyandagon Majlisi Oli Raisi Mahmadoir Zokirzoda bilan o'tkazgan uchrashuvda ikki mamlakat o'rtasidagi ko'p qirrali strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlari yuksak darajaga erishilgani mamnuvniyat bilan qayd etildi.

Shu bilan birga, parlamentlararo almashinuvni yanada faollashtirish, kooperatsiya loyihalarini va madaniy-gumanitar dasturlarni qo'llab-quvvatlash va ilgari surish uchun sohaviy qo'mitalar va hududiy kengashlar darajasida samarali aloqalarni kengaytirish masalalari muhokama qilindi. Bu, o'z navbatida, ikki tomonlama aloqalarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'taradi va amaliy mazmun bilan boyitadi.

Tashrif doirasida O'zbekiston bilan Tojikiston o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlikning deyarli barcha yo'nalishini qamrab oluvchi 28 ta hujjat imzolandi. Keng ko'lami hamkorlikni yanada rivojlantirish uchun hali ishga solinmagan ulkan salohiyat va katta imkoniyatlar chegaralari belgilab olindi. Bunda mamlakatlar parlamentlari darajasida aloqalar samaradorligini oshirish muhimligi aytili.

Ushbu salmoqli hujjatlar birodar mamlakat va xalqlarimiz o'rtasidagi o'zaro manfaatli munosabatlarni har tomonlama yanada rivojlantirish, ko'p qirrali sheriklikni chuqurlashtirish yo'lida yangi natijalarga erishish uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi.

Oltinoy MAMIROVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.



URUSHI DAVRIDAGI JASORATI BIQIYOS

Ikkinchi jahon urushida bevosita jangovar harakatlarda ayollar ham qatnashgan. Davlat mudofaa qo'mitasi urushning ilk kunlaridan boshlab ayollarni ham urushga yuborish borasida bir qator qarorlar qabul qilgan. Garchi, avvaliga frontga borish ixtiyoriy bo'lgan bo'lsa-da, 1942-yil bahoridan boshlab harakatdagi qo'shin safiga ayollarni ommaviy ravishda safarbar etish bo'yicha bir to'xtamga kelingani ma'lum.

O'zbekistondan 4 ming 555 nafar ayol urushda qatnashgan, ularning orasida aloqachi, uchuvchi, mergan, zenitchi, tibbiy xodim va razvedkachilar bor edi.

Urushning boshlang'ich davrining eng murakkab vazifalaridan biri iqtisodiyotni harbiy izga solish bo'lgan. Bu mas'uliyatli vazifani SSSRning qariyb 40 foiz aholisi istiqomat qiladigan, ko'mirning 63 foizi qazib olinadigan, po'latning 50 foizi ishlab chiqariladigan, donning 38 foizi yetishtiriladigan, ayniqsa, ko'pgina mudofaa korxonalari joylashgan hududni fashistlar bosib olgan bir paytda hal qilish kerak edi.

Shu bois O'zbekiston urush maydonlariga juda katta miqdorda harbiy texnika, qurol-yarog', dori-darmon, kiyim-kechak, oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib beradigan muhim tayanch markazlaridan biriga aylandi. Ishlab chiqarish korxonalari harbiy maqsadlarda qayta tashkil etildi. Jumladan, ko'p millatli xalqimiz fidokorona mehnati bilan o'sha vaqtdagi 300 ga yaqin ishlab chiqarish korxonalarida harbiy mahsulotlar tayyorlandi. Shu davrda front hududlaridan yurtimizga 151 ta zavod ko'chirib keltirilib, qisqa fursatda ishga tushirildi. Ularda aholimiz tunu kun mashqatli mehnat qilib, qahramonlik namunasi ko'rsatgan, desak, ayni haqiqat.

1941-yil 26-iyundan boshlab mamlakatda ishchi va xizmatchilarga

ishdan tashqari vaqtda majburiy mehnat qilish, katta yoshdagilar uchun haftada 6 kunlik, kuniga 11 soatlik ish tartibi joriy etilib, ta'tillar bekor qilindi. Idora xizmatchilari, uy bekalari va o'quvchilar ham ishlab chiqarishga jalb etildi. Agar 1940-yilda sanoat ishchilari orasida xotin-qizlar salmog'i 34 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 1942-yilda bu ko'rsatkich 63,5 foizga yetdi.

Natijada O'zbekiston urush yillarida front uchun 2100 ta samolyot, 17342 ta aviamotor, 2 318000 dona aviabomba, 60 mingga yaqin harbiy-kimyoviy apparaturalar, 22 mln. dona mina va 560 ming dona snaryad, 1 mln. dona granata, 330 mingta parashyut, harbiy ehtiyoj uchun 100 ming kilometrdan ortiq turli simlar, minalarni aniqlab beruvchi 4,5 ming dona qurilma, 2 861000 ming juft armiya etigi va 59 mingdan ortiq

1945-yillarda mamlakatimiz sobiq ittifoq miqyosidagi ulkan hospitalga aylaniib, bu yerda minglab jangchilar davolanib, safga qaytgan.

Og'ir damda xalqimizning insonparvarligi, bag'rikengligi, ayniqsa, yaqqol ko'rindi. Aholimiz urush tufayli uy-joyi, ota-onasi va qarindoshlaridan ajralgan, suronli hududlardan ko'chirib keltirilgan qariyb 1,5 million kishini bag'riga oldi. Ularning 250 mingdan ziyodi bolalar edi. Ko'pgina o'zbek oilalari ikkita va undan ortiq yetim bolalarni (*Sh. Shomahmudov oilasi — 14 nafar, H. Samadov oilasi — 12 nafar, M. Jo'rayeva va Ashurxo'jayevlar oilasi 8 nafardan*) o'z tarbiyalariga oldilar. Oxirgi burda nonini ham ular bilan baham ko'rdi.

Shu bilan birga, Rossiya, Ukraina va Belarusning dushman bosib olgan hududlaridan turli millatga mansub



Hasan PAYDOYEV olgan suratlar.

ot hamda ko'pgina boshqa harbiy anjomlar yetkazib berdi.

Shuning o'ziyoq o'zbek xalqining g'alabaga qo'shgan hisssasi qanchalik salmoqli bo'lganligini ko'rsatib turibdi.

Qolaversa, O'zbekistonda to'plangan mablag' hisobidan o'nlab harbiy samolyot va tanklar, jangovar mashinalar barpo etildi. 1941 —

200 ga yaqin yozuvchi va shoirlar Toshkentga ko'chib kelib, shu yerda ijod qildi.

Albatta, bu shunchaki statistik ma'lumot emas. Bu raqamlar mudhish urush oqibatlarini hech qachon unutmassizlikka chaqiradi. Ayni chog'da bugungi tinch va go'zal hayotning qadriga yetib, doimo hushyor va oqoh

bo'lishga, yoshlarni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashga undaydi.

Prezidentimizning 2019-yil 23-oktabrdagi "Ikkinchi jahon urushida qozonilgan G'alabaniy 75 yilligini nishonlash to'g'risida"gi qarori bilan Toshkent shahrining Olmazor tumanida "G'alaba bog'i" tashkil qilindi. Bundan ko'zlangan maqsad — yoshlarimizni ota-bobolar ruhini hurmatlash, millatni sevis, yurtning har qarich tuprog'ini qadrlashga o'rgatish, ezgulik va saxovat singari xalqimizning ko'p asrlik an'analari hurmat qilish ruhida tarbiyalashdan iborat. Bu esa birinchi galda ajdodlar xotirasiga chuqur ehtiromdan boshlanadi.

"G'alaba bog'i" xalqimiz qahramonligini ulug'laydigan, uning qadr-qimmatini yuksaltiradigan betimsol majmuadir.

Vaqt o'tadi, zamonlar o'tadi, lekin uzoqni ko'zlab, hayotning o'zi o'rtaga qo'yayotgan talablarni inobatga olib, odamiylik, insonparvarlik fazilatlarini ulug'lash, umuman, Vatani uchun, elu yurt uchun xizmat qilgan ajdodlar nomlarini saqlash, inson xotirasini qadrlash yo'lida qilingan bunday savobli ishlar hech qachon unutilmaydi.

Shu bois so'nggi yillarda mamlakatimizda Ikkinchi jahon urushining har bir qatnashchisiga g'amxo'rlik ko'rsatishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ularning har biriga moddiy, ma'naviy va boshqa turdagi yordamlar berib kelinayotadi. Buni hech ikkilanmasdan yangi O'zbekistonda xalq jasoratiga ko'rsatilayotgan yuksak ehtirom namunasi, deyish mumkin. Qolaversa, bu bizni o'timishdan to'g'ri xulosa chiqarib, doimo hushyor va oqoh bo'lishga, ajdodlarimizdan ibrat olib yashashga rag'batlantiradi.

Qutbiddin BURHONOV,
Oliy Majlis Senatining
Mudofaa va xavfsizlik
masalalari qo'mitasi raisi.



MEHR-MUHABBAT VA SADOQAT UNUTILMAYDI



Mazkur hujjatga muvofiq Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari, front ortida mehnat qilgan faxriylar uyiga borilib, o'sha yerning o'zida ko'ngilochar tadbirlar tashkil etiladi. Bu esa bugungi yosh avlod qalbidagi vatanparvarlik va yurtga sadoqat tuyg'ularini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va nogironlarining har biriga tibbiy va ijtimoiy xizmat ko'rsatish, ularni parvarish qilish maqsadida tibbiyot xodimlari (shartnoma asosida) birlashtirilgan holda doimiy ravishda patronaj xizmati yo'lga qo'yiladi.

Urush ko'rgan va janglarda jon olib, jon bergan qahramon jangchilarga ko'rsatiladigan bunday e'tibor va g'amxo'rlik "Inson qadri uchun" ezgu g'oyasiga hamohangligi bilan ahamiyatlidir. Binobarin, bugungi tinchlik, xotirjamlik va farovon hayot o'z-o'zidan qo'lga kiritilmagan. Ikkinchi jahon urushida 2 million nafarga yaqin o'zbekistonlik yigitlar jangga o'tlanishgan bo'lsa, afsuski, ularning 800 mingga yaqiniga ona yurtiga qaytish nasib qilmagan...

Hayot davom etar ekan, Ikkinchi jahon urushida qatnashgan va front ortida fidokorona mehnat qilgan yurtdoshlarimizning jasorati hech qachon unutilmaydi. Ularning xalqimiz oldidagi burchini muqaddas bilib, g'oyat og'ir sharoitlarda ko'rsatgan matonati hamisha e'tirofu e'zozga munosibdir.

Shahnoza XOLMAHAMATOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi
deputati.

Toshkent xalqaro sanoat ko'rgazmasi:

YIRIK INVESTORLAR UCHUN MUHIM MULOQOT MAYDONI



— 2022-yildan boshlab tadbirkorlik subyektlarimiz mamlakatdagi korxonalar bilan faol hamkorlik qilib kelmoqda, — dedi Rossiya Federatsiyasi Perm o'lkasi gubernatori Dmitriy Maxonin. — Ular, asosan, gaz nasos agregatlari, neft va gaz sanoati ehtiyojlari uchun quduq nasoslari, shaxsiy himoya vositalari va boshqa mahsulotlar yetkazib bermoqda. To'qimachilik sanoatida

o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirdik. Ko'rgazma doirasida yirik diametrlidagi quvurlar va gaz nasos agregatlarini diagnostika qilish uchun robotlar ishlab chiqaruvchi kompaniya O'zbekistonda vakolatxonasini ochdi. Ular gaz ta'minoti tizimlarining zaif tomonlarini aniqlashga va quvurlarni o'tkazish jarayonini optimallashtirishga yordam beradi. Perm o'lkasi delegatsiyasi



Sirojiddin VOHIDOV olgan suratlar.

O'zbekistonning qator yirik sanoat korxonalari bilan hamkorlikni chuqurlashtirish maqsadida Buxoro viloyatida ham bo'ldi, gumanitar va ta'lim sohasidagi hamkorlik masalalari ustida fikrlashildi.

Novgorod viloyatining reabilitatsiya mahsulotlari ishlab chiqaruvchi "Aktiv" kompaniyasi mamlakatimiz hududlarida joylashgan "Imkon" reabilitatsiya markaziga ega davlat

ixtisoslashtirilgan ko'p tarmoqli maktabgacha ta'lim muassasalariga mahsulot yetkazib berish bo'yicha shartnomalar imzoladi. Ular tayanch-harakat tizimining og'ir kasalliklari bo'lgan bolalarning hayotini sezilarli darajada osonlashtiradi, dunyoni o'rganishga va maktabgacha ta'lim olishga yordam beradi.

— Ko'rgazmaga nogironligi bo'lgan bolalar uchun aravachalar

va maxsus stullar, shuningdek, reabilitatsiya qilishning innovatsion texnik vositalari — "Reforma" kostyumi olib keldik, — deydi "Aktiv" korxonasi xodimi Tatyana Gusak. — U kasallik tufayli mushaklarini boshqara olmaydigan bolaning holatini shakllantirishga imkon beradi. Uskunalar miya yarimshari va boshqa nuqsonlari bo'lgan bolalarda ikkilamchi kasalliklarning oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Rossiyada O'zbekistonda bo'lgani kabi, nogironligi bor bolalarni individual reabilitatsiya vositalari bilan ta'minlash muammosi dolzarb bo'lib qolmoqda. Birgalikda biz bunday bolalarga yordam berish imkonligi haqida fikrlashib oldik.

Uch kun davom etgan xalqaro sanoat ko'rgazmasi doirasida "yashil" transport, sanoat korxonalarini kompleks boshqarish sohasida raqamli yechim, Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi va mintaqaviy sheriklik doirasida hamkorlik, yoqilg'i-energetika majmuasida "toza" energiya va innovatsiyalar, standartlarni uyg'unlashtirish, transport infratuzilmasini rivojlantirish, sanoat logistikasi va texnoparklarining xalqaro investitsiya ektotizimini yaratish mavzularida muhokamarlar bo'lib o'tdi.

"Xalq so'zi".

“Fizika — 2024”:

XALQARO ALOQALAR YANADA KENGAYADI



Shuningdek, xalqaro ilmiy aloqalarni yanada kengaytirish maqsad qilingan. Forumda AQSh, Ozarbayjon, Ruminiya, Rossiya, Qozog'iston kabi davlatlardan 154 nafar olim ma'ruzalari bilan qatnashmoqda.

"Fizika — 2024" III xalqaro forumini Samarqand davlat universiteti rektori, O'zbekiston Respublikasi fan arbobi, Oliy Majlis Senati a'zosi Rustam Xolmurodov kirish so'zi bilan ochdi.

Forumning yalpi majlisida O'zRFA prezidenti, akademik Behzod Yo'ldoshev, AQShning Texas universiteti Nanotexnologiyalar instituti direktori o'rinbosari, ITMO universiteti g'ibrid nanofotonika hamda optoelektronika laboratoriyasi mudiri, O'zbekiston Respublikasi fan arbobi Anvar Zohidov, Rossiyaning Birlashgan yadroviy tadqiqotlar instituti direktori, akademik Grigoriy Trubnikov, Rossiya FA akademigi Vladislav Xomich, professor Dilbar G'ulomova ma'ruza qildi.

Anvar ZOHIDOV,
O'zbekiston Respublikasi fan arbobi:

— Bugun Samarqand davlat universitetida tarixiy voqealik — dunyoning yetakchi fizik olimlari yig'ilib, dolzarb mavzularni muhokama qilmoqda.

SamDuda fizika sohasiga oid o'nga yaqin ilmiy maktablar, zamonaviy laboratoriyalar faoliyat ko'rsatadi. Shu bois forum Samarqand davlat universitetida o'tkazilyapti. Alohida ta'kidlash joizki, SamDU rektori Rustam Xolmurodov tashabbusi bilan Markaziy Osiyoda yagona bo'lgan Samarqand Kvant markazi tashkil etilgani e'tiborga molik. Mazkur markaz zamonaviy texnologiya va fizikaning eng yuqori natijalarini qo'lga kiritish imkoniyatini yaratadi.



Vladislav XOMICH,
Rossiya Fanlar akademiyasi akademigi:

— "Fizika — 2024" III xalqaro forumi MDH davlatlari uchun muhim o'rin tutadi. Forumda sohaga oid eng dolzarb ma'ruzalar tinglanmoqda. Qaysidir ma'noda so'nggi yillarda fizikaga oid xalqaro tadbirlarning nufuzi pasayib qolgan edi.

Samarqand davlat universitetida bugungi tadbirning o'tkazilishi esa nihoyatda maqsadga muvofiq. Xorijlik olimlar mazkur forumga katta qiziqish bildirayotir va yuqori saviyada o'tkazilayotganligini alohida e'tirof etmoqda. Anjumandagi ma'ruzalar fanning rivojlanishi uchun xizmat qilishiga ishonaman.



Ilhom SODIQOV,
O'zRFA Yadro fizikasi instituti direktori,
akademik:

— Xalqaro forumda yosh tadqiqotchilar, magistrantlar va talabalar ham ishtirok etmoqda. Bu ularning katta yutugi, deb bilaman. Tadbirda qatnashchilar tomonidan eng dolzarb mavzularda ma'ruzalar qilinmoqda. Yangi ixtirolar xususida bahs-munozaralar bo'lmoqda.

Anjumandagi yosh tinglovchilar o'zlari uchun munosib yo'nalish yoki ilmiy rahbar tanlash, yetakchi olimlardan qator tavsiyalar olish, hamkorlikda nufuzli jurnallarda maqolalar e'lon qilish, xalqaro grantlarda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Tadqiqotchilar bundan unumli foydalanishiga ishonaman.

Xalqaro forum davom etmoqda.

"Xalq so'zi".



QISQA SATRLARDA

Nogironligi bo'lgan shaxslar davlat e'tiborida

Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili va BMT Taraqqiyot dasturining O'zbekistondagi vakolatxonasi hamkorligida "Inklyuziv nogironlik va gender-sezgir muloqot" mavzuida seminar tashkil etildi.

Tadbir qatnashchilari nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari, ular bilan samarali kommunikatsiya o'rnatish usullari, jamiyatdagi va OAVdagi mavjud gender stereotiplar hamda gender-sezgir muloqot uslublari bo'yicha ko'plab foydali ma'lumotlarga ega bo'ldi.

Inson resurslarini boshqarishning samarali usullari

Poytaxtimizda "Samarali boshqaruv — O'zbekistonda davlat boshqaruvi salohiyatini qo'llab-quvvatlash" loyihasi hamda "Strategik rejalashtirish va xodimlarni davlat xizmatiga jalb qilish" mavzuida seminar mashg'ulotlari boshlandi.

Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi, Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ) hamda Latviya Markaziy moliya va shartnomalar agentligi hamkorligida tashkil etilgan ushbu tadbirda xorijiy ekspertlar davlat xizmatida qisqa va uzoq muddatli strategiyalarni ishlab chiqish, inson resurslarini boshqarish kabi mavzularda nazariy va amaliy tajribalari haqida fikr almashmoqda.

Jahon andozalariga mos mahsulotlar

Farg'ona viloyati O'zbekiston tumanida "Maryam mebel" mebel ishlab chiqarish korxonasi tashkil etilib, Rossiyaning "Liga" kompaniyasi bilan hamkorlikda jahon andozalari darajasida mahsulotlar ishlab chiqarishga kirishildi.

Shu munosabat bilan o'tkazilgan tantanali tadbirda qayd etilganidek, hamkorlik kelishuviga ko'ra, "Liga" kompaniyasi tomonidan qariyb 1 million dollarlik eng so'nggi rusumdagi raqamlashtirilgan uskuna va dastgohlar o'rnatilgan. E'tiborlisi, endilikda ushbu korxonada yil yakuniga qadar 150 ta yangi ish o'rni yaratiladi.

Ma'lumot uchun aytish mumkinki, ayni paytda tumanda 455 ta zamonaviy sanoat korxonalari faoliyatini yo'lga qo'yilgan bo'lib, ularning deyarli 90 foizi mazkur tarmoqlar hissasigato'g'ri keladi.

Dunyoni ma'rifat qutqaradi

Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom institutida "Islom dini asl manbalarini talqin qilishdagi yondashuvlar: muammo va yechim" mavzuida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya bo'lib o'tdi.

Xalqaro anjumanda globallashuv jarayoni turli sohalarida taraqqiyot sur'atining o'sishida muhim omil bo'layotgani, uning ilm-fan ravnaqi, axborot almashinuvidagi o'rni ulkan ekani e'tirof etildi. Media olamida, xalqaro tarmoqda din-e'tiqodni to'g'ri anglash, sog'lom dunyoqarash, sog'lom tafakkurni shakllantirishdagi muammolar xususida ham batafsil so'z yuritildi.

"Xalq so'zi".

“O‘zbekiston — 2030”
strategiyasi:YOSHLARIMIZ
KELAJAKKA ILM BILAN
KIRIB BORADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrda “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini 2023-yilda sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga asosan xorijiy universitetlar bilan hamkorlikni kengaytirish doirasida TATU Urganch filiali va dunyoning “Top — 300” reytingiga kiruvchi Malayziya va Hindiston universitetlari bilan memorandumlar imzolandi. Ushbu kelishuvlar asosida professor-o‘qituvchilarning malaka oshirishlari va stajirovka o‘tashlariga imkoniyatlar yaratilib, talabalar o‘rtasida akademik mobillik va talabalar almashinuvi yo‘lga qo‘yildi.

Shuningdek, filialda oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish bo'yicha sohaga doir fanlarni chuqurlashtirilgan holda o'rgatish, ta'limning yangicha metodlarini ishlab chiqish, moddiy-texnika va o'quv-uslubiy ta'minotni yaxshilash kabi bir qator ishlar amalga oshirilmog'ya.

Yoshlarga oid davlat siyosati, ya'ni yoshlar o'rtasida IT sohasini yanada ommalashtirish hamda sohada xizmatlar eksportini oshirish bo'yicha filial professor-o'qituvchilari va talabalari tomonidan xalqaro

raqamlashtirishni joriy qilish lozim. Albatta, biz ushbu sohalar uchun malakali, yuqori bilimga ega kadrlar tayyorlashda zimnamizdagi mas'uliyatni chuqur his etgan holda faoliyat olib boramiz. Yoshlarni har jihatdan ilmiy va salohiyatli qilib tarbiyalash yangi O'zbekistonda barpo etishga qo'shilgan munosib hissamiz bo'ladi.

Shukurulloh ISMOILOV,
TATU Urganch filiali
direktori,
fizika-matematika
fanlari nomzodi,
dotsent.

TA'LIM VA INNOVATSIYA

ULUG'VOR MAQSADLARGA ERISHISHDA MUHIM ASOS BO'LIB XIZMAT QILADI

Yangi O'zbekiston taraqqiyotning o'ziga xos yo'lidan bormoqda. Turli sohalarda amalga oshirilayotgan tub islohotlar ta'lim tizimini ham chetlab o'tayotgani yo'q. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev mamlakatimiz taraqqiyoti strategiyasini belgilashda ta'limga “Yangi O'zbekiston uchun eng katta investitsiya” sifatida urg'u bermoqda. Ma'lumki, oliy ta'limda sifatli ta'minlashning ko'plab elementlari mavjud. Ular orasida axborot-kommunikatsiya muhiti, moddiy-texnika va uslubiy ta'minot, o'quv dasturlarining zamonaviy talablarga mosligi, ilmiy tadqiqotga yo'naltirilganlik, ta'lim jarayoni va sifatli pedagogik faoliyat, samarali xalqaro hamkorlik, professor-o'qituvchilar va talabalarga yaratilgan shart-sharoitlar alohida o'rin tutadi.

Mushohada

Yurtimizdagi barcha oliy o'quv yurtlari qatorida Namangan davlat universiteti ham ta'lim sifatini yanada oshirish, zamon talabiga mos, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan mutaxassislar tayyorlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Davlatimiz rahbarining shu yil 25-26-mart kunlari Namangan viloyatiga tashrifi chog'ida bu yo'nalishdagi maqsadlarni izchillik bilan amalga oshirish bo'yicha qator vazifalar belgilab berildi.

Ma'lumki, Namangan davlat universiteti uzoq yillik o'z tarixiga ega. Albatta, to'plangan tajriba ham shunga yarasha. Universitetning 2021-yilda moliyaviy va akademik mustaqillikka erishishi jamoa uchun yangi imkoniyat eshiklarini ochdi.

Bugungi kunda universitetda 13 ta fakultet, 41 ta kafedra mavjud. 71 ta bakalavriat yo'nalishi hamda 27 ta magistratura mutaxassisligi bo'yicha kadrlar tayyorlanmoqda. Joriy o'quv yilida 25 mingdan ziyod talabalar 680 nafar professor-o'qituvchi tashil berib kelayotir. Professor-o'qituvchilarning 300 dan ko'pi ilmiy daraja va unvonga ega. Boshqacha aytganda, pedagogik jamoaning ilmiy salohiyati bugungi kunda 42 foizni tashkil etadi.

Universitet nufuzi yildan-yilga oshib bormoqda. Fikrimizga oliy ta'lim muassasamizning 2023-yilda Buyuk Britaniyaning “THE” (“Times Higher Education”) xalqaro reytingida reportyor maqomida qayd etilgani, ushbu yilda esa “Greenmetrics” xalqaro reytingida dunyo bo'yicha 1183 ta oliyog' orasidan 790-o'rinni, respublika oliy ta'lim muassasalari o'rtasida 18-o'rinni egallaganidir. Zamon talabidan kelib chiqib, ta'lim-tarbiya jarayonlarini raqamlashtirishni, ya'ni “raqamli universitet” konsepsiyasini amalga oshiryapmiz. Bu yerda yagona raqamli ekosistema — “Open Science Platform” (Ochiq fan platformasi) ishga tushirilgan va “OneID” hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining “HEMIS” platformasiga integratsiya qilingan.

Mazkur raqamli ekosistema rahbar xodimlar va professor-o'qituvchilarni rag'batlantirishga yo'naltirilgan “KPI” (“Key Performance Indicator”), markazlashgan masofaviy tashxislash va boshqarish tizimi, lavozimlarga tanlov jarayonlari, onlayn o'qitish va test tizimlari, elektron kutubxona, bo'sh ish o'rinlari ma'lumotlar bazasi, moddiy-texnika bazasi, ilmiy jurnallar kabi o'ndan ortiq kontentlarni o'zida mujassamlashtirgan.

E'tiborlisi, fakultet dekanatlari va kafedralarda ta'lim-tarbiya jarayonlarini raqamlashtirish maqsadida 50 ga yaqin kontentlarni o'z ichiga olgan “Raqaamli dekanat”, “Raqaamli kafedra” tizimlari yo'lga qo'yildi. Dasturiy mahsulotlar uchun shaxsiga doir ma'lumotlar bazalarini davlat reestrinda ro'yxatdan o'tkazish bo'yicha guvohnomalar olingan.

Shuningdek, oliyog'ha IT-park tashkil etilgan bo'lib, unda talabalar va universitet xodimlarini “Full Stack” dasturchi yo'nalishida bepul o'qitish tashkil etilgan. O'tgan yili IT-parkdagi xodimlar va talabalar tomonidan “Google” kompaniyasi granti asosida “Google Work Space” platformasidan 100 terabayt joy ajratilishiga hamda “GoogleClassroom” va “Google Office” kabi bulutli platformalardan 100 ming AQSh dollari qiymatiga teng bepul foydalanish imkoniyatiga erishildi.

Darvoqe, moddiy-texnika baza ta'lim sifatini ta'minlashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Ta'lim va fan integratsiyasining ta'lim sifatidagi uyg'unligi o'quv-laboratoriya fondi va quvvatlarida ko'zga yaqqol tashlanadi. So'nggi ikki yilda universitetimizda Jahon banki granti loyihasi doirasida 165,3 ming AQSh dollari qiymatidagi “Akvakultura” o'quv-ishlab chiqarish sexi, AQShning “USAID” jamg'armasi granti asosida 16,7 ming AQSh dollari qiymatidagi sukat o'quv-ishlab chiqarish sexi, Islom taraqqiyot banki grantlari asosida mexanika, fizika, biologiya, kimyo, kimyo-texnologiya, ekologiya yo'nalishlarida 4,8 mlrd. so'mlik qiymatdagi o'quv-ilmiy laboratoriyalar tashkil etildi.

Bundan tashqari, o'tgan yili

Yangiqo'rg'on tumanidagi 11 gektarlik o'quv-amaliyot poligoni hamda universitet mablag'lari hisobidan ochilgan 250 mln. so'mlik mebel sexi o'quv-ishlab chiqarish sexlariga aylantirildi hamda ularda o'quv-laboratoriya mashg'ulotlarini olib borish bo'yicha shart-sharoitlar yaratildi.

Bunday ijobiy o'zgarishlar xalqaro hamkorlik doirasidagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqishga zamin yaratmoqda, desak, mubolag'a emas. Joriy yil davomida Xitoy Fanlar akademiyasining Kungming botanika hamda Shinjon ekologiya va geografiya institutlari bilan hamkorlikda umumiy maydoni 720 kvadrat metr bo'lgan 5 ta



yo'lga qo'yiladi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ta'lim sifatini yanada oshirishda professor-o'qituvchilar ilmiy salohiyatini kuchaytirish, ilmiy tadqiqot faoliyati natijalarini ta'lim

jarayonlariga tatbiq qilish va xalqaro hamkorlar bilan o'zaro tajriba almashinish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Universitetda yo'lga qo'yilgan “Ilimga asoslangan ta'lim” loyihasi doirasida katta natijalar qo'lga kiritilmoqda. Xususan, ayni paytgacha Namangan davlat universiteti yuzga yaqin xorijiy davlatlardagi nufuzli oliy ta'lim muassasalari bilan ilmiy-amaliy hamkorlikni yo'lga qo'ydi. Joriy yilning aprel-may oylarida esa dunyoning eng ilg'or oliy o'quv yurtlari — Turkiyaning O'rta Sharq

Asosiysi, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash maqsadida Namangan davlat universitetida 5 ta o'ziga xos funksional vazifani bajaruvchi obyektni o'z ichiga olgan “Yashil innovatsion hudud” tashkil etilgan bo'lib, mazkur hudud “Ekobog”, o'quv va ilmiy laboratoriyalar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari uchun o'quv binosi, Ma'naviyat va madaniyat markazi hamda “Ofis registrator”ni o'z ichiga oladi. Ayni paytda ochiq amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish maqsadida kengligi ehtiyojdan ortiq bo'lgan asfalt yo'laklarni ixchamlashtirish, foydalanishga yaroqsiz toshloq yerlarni qayta o'zlashtirish asosida universitetda uch gektar hududda “Universitet ekobog'i” yaratildi.

(algologiya, biotexnologiya va mikrobiologiya, biokimyo va molekulyar biologiya, botanika, zoologiya) o'quv-ilmiy laboratoriya, bunga qo'shimcha ravishda ikkita 100 o'rinli ma'ruzalar zali, 8 ta amaliy va laboratoriya xonasi hamda 10 ta o'quv-yordamchi xona barpo etiladi.

Shuningdek, 2 ming o'rinli zamonaviy “Innovation fakultet” binosi ham quriladi. Unda kimyo, fizika, biologiya, ekologiya yo'nalishlari uchun zamonaviy laboratoriyalar tashkil etiladi. Bu laboratoriyalarda bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bilan birgalikda tayanch doktorantlar uchun tadqiqotlarni amalga oshirish imkoniyati yaratiladi. Qisqa aytganda, ta'lim bosqichlarining uzviyiligi ta'minlanib, doktorlik dissertatsiyalari ustida ish olib borish

texnika universiteti, Anqara Aydin universiteti, Xitoyning Fudan va Guanjou universitetlari hamda Kunming botanika hamda Shinjon ekologiya va geografiya institutlari bilan strategik hamkorlik shartnomalari imzolaniishi kutilmoqda.

O'tgan yili universitetning 85 nafar talabasi hamda 72 nafar professor-o'qituvchisi xorijiy ta'lim va ilmiy muassasalarda stajirovka

Aytish mumkinki, universitet jamoasi o'z nomi va nufuziga mos ravishda sifatli ta'lim berish, yetuk va malakali mutaxassislarni tayyorlash yo'lida bor kuch va salohiyatini ishga solmoqda. Islohotlar jarayonidagi faol ishtirok, kuchayib borayotgan xalqaro hamkorlik, qo'llab-quvvatlanayotgan iqtidorli talabalar va yosh izlanuvchilar erishayotgan yutuqlar, zamon talabidan kelib chiqib yuritilayotgan faoliyat — oldimizga qo'ygan ulug'vor maqsadlarimizga erishish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Dilshod XOLMATOV,
Namangan davlat universiteti prorektori,
kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.

O‘ZBEKISTON OSIYO KUBOGINING
YARIM FINALIDA

Futzal bo'yicha Tailandda davom etayotgan Osiyo kubogining barcha yarim finalchilari nomi ma'lum bo'ldi.

Quvonarli jihati, qit'aning eng kuchli to'rt terma jamoasi orasida O'zbekiston ham bor.

Futzal

Chorak finalda ispaniyalik mutaxassis Xose Venasio Lopes bosh murabbiyligida futzalchilarning Vietnamlar vakillariga qarshi bahs olib bordi. O'ta muvaffaqiyatli va keskin kurashlar ostida kechgan bellashuvda hamyurtlarimiz mag'lubiyatga uchrab turgan joyidan g'alabani ilib ketdi — O'zbekiston — Vietnamlar 2:1. Uchrashuvda gollarni Elbek To'lg'inov va Sunnatilla Jo'rayev raqib darvozasiya kiritdi. Vietnamlarning yagona goli Nguyen Tin Fat nomiga yozildi.

Qolgan chorak final juftliklarida quyidagi

natijalar qayd etildi: Tojikiston — Afg'oniston 2:1, Tailand — Iroq 3:2, Eron — Qirg'iz Respublikasi 6:1.

Musobaqa reglamentiga ko'ra, Osiyo kubogining barcha yarim finalchilari joriy yil mamlakatimizda o'tkaziladigan jahon chempionatiga yo'llanmani qo'lga kiritardi. O'zbekiston mezbzon sifatida musobaqada qatnashishi bois yana bir yo'llanma chorak finalda mag'lub bo'lgan Afg'oniston, Qirg'iz Respublikasi, Iroq va Vietnamlar o'rtasida o'ynaladi.

Osiyo kubogining finaliga chiqish uchun



O'zbekiston terma jamoasi Eronga qarshi bahs olib boradi. Ushbu bellashuv 26-aprel kuni Toshkent vaqti bilan soat 19:00 da boshlanadi. Yana bir yarimfinal uchrashuvi Tailand va Tojikiston o'rtasida bo'lib o'tadi.

Fazliddin ABILOV
 (“Xalq so'zi”).

OROL DENGIZI BO'YIDA MOBIL ALOQADAN
FOYDALANISH IMKONIYATI YARATILDI

So'nggi yillarda Mo'ynoq tumaniga, Orol dengizining suvi saqlanib qolgan qismiga tashrif buyuruvchi turistlar soni ko'paymoqda. Sayyohlarga transport, mehmonxona va boshqa yo'nalishlarda xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash borasida yaqin yillarda ibratga loyiq ishlar amalga oshirilmoqda.

Qulaylik

Orol dengiziga borganlar yaxshi biladi: shu paytgacha dengiz hududida mobil aloqasi bo'lmagan. Axborot asrida bu ham hududga tashrif buyuruvchilarga biroz noqulaylik tug'dirardi. Endi vaziyat o'zgardi. Gap shundaki, Orol dengiz hududidagi mehmonxona yaqinida “Ucell” kompaniyasining yangi stansiyasi qurilib, foydalanishga topshirildi.

Prezidentimizning tegishli qarorlari asosida tadbirkorlikni rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish borasida qariyb o'n yildirki, Mo'ynoq tumanida faoliyat ko'rsatib kelmog'damiz, — deydi “Vishe Krishi Tashkent” MChJ rahbari Saidali

Rasulov. — O'tgan yili hududga tashrif buyuruvchi ichki va tashqi sayyohlarga qulay sharoit yaratish maqsadida Orol dengizining suvi saqlanib qolgan qismida “Aral Plaza” brendi ostida 96 o'rinli turistik dam olish maskanini quridik.

Tadbirkorning ma'lum qilishicha, birinchi galda arteziyan quduq qazilib, 300 metr chuqurlikdan ichimlik suvi chiqarildi. Keyingi zarurat elektr energiyasi edi. Bu borada “yashil” energiyaga murojaat qilindi: quyosh panellari o'rnatilib, dam olish maskaniga kechasi ham yorug'lik nuri taraldi.

— Bugungi kungacha ko'p sonli sayyohlar faqat dam olish maskanida

bo'lardi, — deydi S. Rasulov. — Ularning ayrimlari o'zlari xohlamay aynan mobil telefon va internet aloqasi yo'qligi sababli dengiz bo'yidan ertaroq ketishga majbur bo'lganini ko'rganman. Endi vaziyat o'zgardi, kompaniya tomonidan 400 ming dollar yo'naltirilishi tufayli dengiz bo'yida uchta stansiya o'rnatildi.

Prezidentimizning Qoraqalpog'iston Respublikasini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan tarixiy qarorlari asosida yuqorida keltirilganidek, oldin bo'lmagan, ta'bir joiz bo'lsa, xayolga kelmagan ishlar, mahalliy aholi va sayyohlar uchun sharoitlar yaratilmoqda.

Bizga ma'lumot berilishicha, endilikda Orol dengizi suvi saqlanib qolgan hududining 25 kilometr masofadagi oralig'ida telefon hamda yaqin hududlarda internet aloqasi bo'ladi.

G'ayrat OTAJONOV
 (“Xalq so'zi”).

Xalq so'zi

Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 442.14 540 nusxada bosildi. Hajmi — 2 ta boq. O'qset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuktib olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va umulfiga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun ommaviy rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbachi muharrir F. Bozorov.
Musahhib S. Islomov.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 21.15 Topshirildi — 23.05 **1 2 3 4 5 6**